
Hayrullo Teshaboyev ham ishlab ham motoroller minib bir oyda o'rtacha 9 mln. so'm daromad topmoqda

Farg'ona shahar gaz idorasida 2019 yildan buyon haydovchi bo'lib ishlovchi Hayrullo Teshaboyev "Nafosat" mahalla fuqarolar yig'ini yulduz ko'chasi 123-uyda yashaydi. Korxonada haydovchi bo'lib 3 mln. so'mgacha oylik oladi.

Ish smena asosida bo'lib, bir kun ish, 3 kun dam hisoblanadi. Bo'sh kunlarida ish bilan band bo'lish maqsadida hokim yordamchisi Avazbek Alioxunov tavsiyasiga ko'ra imtiyozli kredit hisobiga motoroller olgan.

Hozirda Hayrullo Teshaboyev motoroller xizmatini yo'lga qo'yib, bir oyda o'rtacha 6 mln. so'm daromad topmoqda.

2023-06-20 17:10:40